



ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2024.2

www.ilm.sarchashmalari.uz



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

2-son (fevral 2024)

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (UrDU),
AHMEDOV Oybek Saporbayevich, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),
MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
Sadullayeva Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SATIPOV G'oiqnazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 2-son (fevral 2024)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

board from which someone may jump in order to gain added impetus when performing a dive or a gymnastic movement” ma’nosini anglatadi [OALD.2010;1494] (*spring - bahor, prujina, board – taxta, yog’och*). O‘zbek tilida bu sport anjomi *trampolin (sakrashda balandroq ko’tarilishga yordam beradigan moslama)* leksemasi bilan nomlangan.

Xulosa. Tahlil etilgan misollardan ko‘rinadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi IQSlar xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda hosil bo‘lgan. Shu bois IQSlarda turli madaniyatlarga xos belgilar ham ko‘zga tashlanib turadi. Quyida tadqiqotda aniqlangan ingliz va o‘zbek tillaridagi IQSlarning statistik tahlilini qayd etamiz.

Ma’noning madaniy komponenti sifatida namoyon bo‘luvchi va IQSlarning semantik tuzilmasida kuzatiluvchi farqlovchi belgilar, xususan, o‘zaro mos tushmaydigan va qisman mos tushadigan tuzilmalardagi motivlashtiruvchi belgilar milliy-madaniy o‘ziga xoslikning lingvistik negizini tashkil qiladi. IQSlarning hosil bo‘lish mexanizmi turli tillarda o‘zaro mos tushganida milliy o‘ziga xoslik konnotatsiyalar darajasida namoyon bo‘ladi. IQSlar milliy o‘ziga xosligining ekstralingvistik negizini quyidagilar tashkil qiladi: 1) xalq xo‘jaligi, geografik holat va turmush shart-sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlari; 2) har bir xalqning turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlar va udumlari; 3) milliy madaniyat, adabiy va folklor an‘analari, og‘zaki rivoyatlar va afsonalarning o‘ziga xos xususiyatlari. IQSlarning yasashida komponentlar tub aholi leksik zahirasidan tanlab olinadi, o‘zga tillardan so‘zlar olinmaydi. Bu holat IQSlarda milliy-madaniy xususiyatlar yorqin aks etishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. www.ziyouz.com kutubxonasi; Alisher Navoiy. Muhakamat ul-luq‘atain. T., 1940, 54-b.

(2). Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, рече-поведенческих тактик и сапиентемы. М., “Индрик”, 2005, 1040 с.

(3). Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. М., 1997, 331 с.

(4). Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1998, 259 с.

(5). Собитова З.К. Лингвокультурология. М., “Наука”, 2013, 523 с.

(6). Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. М., Языки русской культуры, 1997, 824 с.

(7). <http://www.astromyth.ru/Astronomy/ConstellationNames.htm>

Lug‘tlar:

(1). Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Eighth edition. Uk/India. Oxford University Press, 2010, p. 1796 (OALD).

(2). Қораев С., Фуломов П., Раҳимбеков Р. Географиядан изоҳли луғат. Т., “Ўқитувчи”, 1979, 156-бет (ГИЛ).

(3). Қосимов А.И. Тиббий терминлар изоҳли луғати. Тошкент, Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003, 472-бет (ТТИЛ).

(4). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 680-бет (ЎТИЛ).

(5). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006, 672-бет.

(6). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд, Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007, 688-бет.

(7). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд, Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008, 608-бет.

Islomov Dilshod Shomurodovich (BuxDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD); e-mail: islomovdilshod77@gmail.com; ORCID: 0000-0001-8793-8031)

TILSHUNOSLIKDA FONOPSIXOLOGIYA ATAMASINING KIRIB KELISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada fonetika, fonostilistika, psixologiya fanlarining rivojlanish tarixi, ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi hamda fonopsixologiya tarmog‘ining paydo bo‘lishi haqida olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganildi va ularga munosabat bildirildi. Jonli so‘zlashuv nutqidagi turli holatlardagi diskurslar psixik jarayon, holat va xususiyatlar bilan uyg‘unligi jadvallarda aks ettirildi hamda izohlab berildi.

Kalit so‘zlar: fonetika, fonostilistika, psixologiya, fonopsixologiya, urg‘u, intonatsiya va ohang, supersegment vositalar, inson ruhiyati, fonologiya, psixofonetika, psixika, inson psixikasi, aql, idrok, tafakkur.

ВВЕДЕНИЕ ТЕРМИНА ФОНОПСИХОЛОГИЯ В ЛИНГВИСТИКУ

Аннотация. В данной статье рассматривается история развития фонетики, фоностилистики и психологии, их взаимосвязь, а также научно-теоретические взгляды ученых на возникновение сети фонопсихологии и реакция на них. В таблицах показана и объяснена совместимость дискурсов в различных ситуациях живого разговора с психическим процессом, состоянием и характеристиками.

Ключевые слова: фонетика, фоностилистика, психология, фонопсихология, ударение, интонация и тон, суперсегментарные средства, психика человека, фонология, психофонетика, психика, психика человека, разум, восприятие, мышление.

INTRODUCTION OF THE TERM PHONOLOGY IN LINGUISTICS

Annotation. This article examines the history of the development of phonetics, phonostylistics, and psychology, their interrelationship, and the scientific-theoretical views of scientists about the emergence of the phonopsychology network and reacts to them. The connection between discourses in different situations in live conversation with mental process, state and characteristics was shown and explained in the tables.

Key words: phonetics, phonostylistics, psychology, phonopsychology, stress, intonation and tone, supersegmental means, human psyche, phonology, psychophonetics, psyche, human psyche, mind, perception, thinking.

Kirish. Hozirgi kunda barcha sohalarning rivojlanib borayotganligi tufayli bu sohalarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borish muhimligini taqozo qilmoqda. Shu bilan birga, tilshunoslik va psixologiya ham bundan mustasno emas.

Tilshunoslikdagi ilmiy izlanishlar shu sohadagi yutuqlarni ko'rsatish bilan birga, kamchiliklarni ham namoyon qilmoqda. Bugungi kunga kelib, fonetika, fonologiya, fonostilistika, diskurs va pragmatikani psixologiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki talaffuz jarayonidagi urg'u, intonatsiya va ohang kabi supersegment vositalar inson ruhiy holati bilan bevosita bog'liqdir. Inson ruhiy holatidagi o'zgarishlar esa psixologiya fanining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk bor yaratilgan fonema nazariyasi rus, polyak va fransuz olimi Ivan Aleksandrovich Boduen de Kurtenega tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur olim tilshunoslik tarixida birinchi marta fonemalarning psixologik va morfologik izohini, ya'ni, "Fonema" tovush tushunchasining kishi ongida his etilgan birligidir deb baho berdi. Ushbu izohlar zaminida, keyinchalik, Moskva va Peterburg fonologiya maktablari vujudga kelganligi fonetika, fonostilistikaning psixologiya bilan uzviy bog'liq ekanligining yana bir isbotidir. Y.D.Polivanov esa ilmiy tadqiqot ishlarida: "Til hodisalarini psixologik nuqtayi nazardan o'rganib, tilni ijtimoiy hodisa, deb qaraydi. Keyinchalik, u fonologiyani psixofonetika, deb nomlashi barcha munozaralarga oydinlik kiritdi" [1;30-b.].

Bugungi kunda psixologiya fanining juda ko'plab fanlar bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanib borayotganligi, fanlararo integratsiya, psixologiyaning fanlar tizimidagi o'rnini belgilab bermoqda. Bizga ma'lumki, mavjud fanlar gumanitar, tabiiy va falsafiy turlarga bo'linadi. Psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo'ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o'rganadi.

Darhaqiqat, "Psixologiya barcha turdagi fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi. Psixologiya tilshunoslik, falsafa, tarix, san'atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy chambarchas bog'liq. Shunga muvofiq psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi" [2;156-b.].

"Psixologiya" ikkita yunon so'zidan – "psyche" – jon, ruh va "logos" – ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlarni o'rganuvchi fan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, psixologiya fani har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimiz, anglab yetishimiz, idrok etishimiz asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlarni yuzaga chiqishida va shakllanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Muhokama. Hozirgi kungacha psixologiya fani haqida qator darslik, o'quv qo'llanmalar yozilgan bo'lsa-da, shu bilan bu fanning jamiyat hayotida tutgan o'rni yuqorilab ketdi, deb ayta olmaymiz. Psixologiya, eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini-o'zi anglashni tadqiq etuvchi fan hisoblanadi. Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Bunga misol qilib, yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashvoviy bo'lagi sifatida talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aristotel „Jon to'g'risida“gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi. O'rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko'rinishdagi g'ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba'zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg'a qadam qo'yildi. Inson xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qadimgi qo'lyozmalar, yodgorliklarda o'z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan" [2;156-b.].

XXI asr bo'sag'asida Yevropa davlatlarda bo'lgani kabi, dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini


har qachongidan yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi.

Psixologiya fani va sohasini nukammal o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil voqea-hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmasdan, har bir insonning aqliy va ruhiy faoliyatini ham o'stirishga yordam beradi, yangi bilim va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilishida o'z ifodasini topadi.

Manbalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy psixologiya ko'p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan tashkil topgan fan bo'lib, o'zining tadqiqot predmetiga ega bo'lgan ko'plab sohalardan tashkil topgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida olimlar psixologiyani bir qancha turlarga ajratgan, jumladan, umumiy psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiqiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta'lim tizimida, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniya va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, psixologiya dunyodagi barcha fanlar bilan uzviy bog'liq desak, mubolag'la bo'lmaydi. Bu fanning barcha sohalar bilan uzviy bog'liq ekanligi, u o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab ekanligi va xilma-xilligini ko'rsatadi.

Natijalar. Psixologiya fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'rganadigan bo'lsak, avvalo, tilshunoslik fani aloqasini tilga olsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu ikki fan borliqdagi voqea-hodisalarni, o'zgarishlarni, yaxshi va yomon narsalarni idrok etishda va ularni boshqalarga to'g'ri yetkazib berish uchun ham bu fanlar dunyo chorrahasida kesishmasligini, to'qnashmasligining iloji yo'q. Inson ko'zi bilan ko'rgan voqea-hodisalarni boshqalarga tushuntirib berish uchun, albatta, his-tuyg'ulardan foydalanadi. Bu esa o'z-o'zidan insonlar o'rtasida turli xildagi diskurslarni paydo bo'lishiga zamin bo'ladi. Aynan shu tomonlama psixologiya fonetika, fonostilistika bilan hamkorlikda ish ko'radi. Bu holatlar tilshunoslikdagi denotativ va konnotativ ma'nolarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Og'zaki nutqda fonostilistik vositalarning paydo bo'lishida inson ruhiy holati, ruhiy kechinmalari alohida ahamiyatga ega. Inson ruhiyati psixologiya fanining obyekti hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, fonetika va psixologiya fanlari o'zaro bog'liqdir. Fonopsixologiya yo'nalishi fonetika va psixologiya fanlarining o'zaro kesishuvi natijasida paydo bo'lgan.

Fransuz va o'zbek tillari jonli so'zlashuv nutqida so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini ko'rsatib berish uchun urg'u, ohang, intonatsiya, ekspressiv-emotsional xususiyatlar muhim ahamiyatga. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari og'zaki nutqdagi turli xil diskurslarda yaqqol namoyon bo'ladi" [4; 8-11-b.].



1-rasm. Shaxs psixikasi

Yuqoridagi birinchi jadvalda so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari og'zaki nutqdagi turli xil diskurslarda yaqqol namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Ikkinchi jadvalda shaxs psixikasiga oid jadvalni analiz qiladigan bo'lsak, psixologiya predmetlari (psixik jarayonlar, psixik holatlar, psixik xususiyatlar) inson ruhiy holatlari, aqli, idroki, tafakkuri, qobiliyatlarini o'z ichiga olgan. Shu bilan birga, mazkur predmetlarni

o‘zbek va fransuz tillaridagi fonostilistik vositalar orqali og‘zaki nutqda yuzaga chiqarishimiz mumkin. Xursandchilik, ma‘yuslik, hayratlanish, xafa bo‘lish, kinoya kabi diskurslar bevosita psixik holatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, fonetikadagi segment va supersegment vositalar to‘g‘ridan to‘g‘ri psixik xususiyatlar bilan bog‘liqligi yuqoridagi jadvalni tahlil qilish jarayonida aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkin, psixologiya har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlarni yuzaga chiqishida va shakllanishida asosiy vosita hisoblanadi hamda an’anaviy ma’noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlarni o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Fonetika esa fonetik nutq apparati, bo‘g‘in va ularning tuzilishini tekshiradi, shuningdek, adabiy talaffuz normalarini, tovushlar o‘zgarishlarini, urg‘u, intonatsiya va uning turlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlarni fonostilistik vositalar orqali og‘zaki nutqda yuzaga chiqarilishi fonopsixologiya tarmog‘ida o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Chigarevskaja N. Traité de phonétique française. Cours théorique. Moscou, 1982, p. 30.
- (2). Sh.R.Barotov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2019, 156-bet.
- (3). Sh.R.Barotov, L.Y.Olimov, O.R.Avezov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Toshkent, 2019, 156-bet.
- (4). A.A.Haydarov. Fonetik uslubiy vositalar. O‘quv qo‘llanma, “Buxoro” nashriyoti, 8–11-betlar.
- (5). Islomov, D.Sh. “The Definition of The Concepts of “Phoneme” and “Phonostylistics” Middle European Scientific Bulletin 9.4 (2021).
- (6). Islomov, D. (2023). On phonetics, phonostylistics and phonetic means. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 28 (28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8800.
- (7). D.Sh.Islomov. “Similarity aspects of uzbek and french phonetics”. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, vol. 10, № 10, Nov. 2023, <https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd/article/view/253>.
- (8). D.Sh.Islomov. (2023). The articulation of sounds in french. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/ijmrd/article/view/251>
- (9). D.Sh.Islomov. (2023). The differentiation aspects of uzbek and french phonetics. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 47–51. Retrieved from <http://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/424/>
- (10). Islomov, D. (2023). About Alliteration in French. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 28(28). Извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8798/
- (11). Islomov, D.S. “The role of sonors in enhancing phonetic resonance and melody in uzbek poetry”. International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. Vol. 1, № 1, 2022.
- (12). Islomov, D. “Жизнь Абдуллы Кадири и его вклад в узбекскую литературу”. Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 6.2 (2021).
- (13). Islomov, D. (2022). Француз тили фонетикаси. Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4108.
- (14). Islomov, D. (2021). Научно-теоретические взгляды на понятия фонемы и фоностилики. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 1(1). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/560.

Saydaliyeva Dilzodaxon Bohodirovna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti tadqiqotchisi;
Saydaliyevad1974@gmail.com)

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SISTEMAVIY YONDASHUV BO‘YICHA QARASHLAR

Annotatsiya. *Olam o‘zaro shartlangan bir-birini taqozo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topgan yaxlit bir sistema sifatida kichik butunliklarga bo‘linuvchan xususiyatga egadir. Obyektiv olam oddiydan murakkabga qarab sinflarga birlashuvchi va ayni chog‘da, bo‘laklarga bo‘linish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab sistema sanaladi. Bu bo‘linish inson ongida umumlashgan tarzda aks etadi va tilda o‘z ifodasini topadi hamda tilning obyektiv olam bilan ong orqali uzviy bog‘lanishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvistika, sistemaviy yondashuv, idrok, ong, maydon nazariyasi, fonologik birliklar, lingvistik birlik.*

Аннотация. *Вселенная как целостная система, состоящая из взаимоотношений взаимозависимых элементов, имеет свойство разделяться на малые целые. Объективный мир рассматривается как сложная система, объединяющая классы от простого к сложному и в то же время обладающая свойством разделяться на части. Это разделение отражается в сознании человека в общем виде, находит свое выражение в языке и показывает целостную связь языка с предметным миром через сознание.*

Ключевые слова: *лингвистика, системный подход, восприятие, сознание, теория поля, фонологические единицы, языковая единица.*

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Shukurov Zoxid Kuchkorovich, Abdullayeva Sarvinoz Eshqobil qizi, Ergashyeva E'zoza Yusup qizi, Baxtiyorov Bekzod Xusniddin o'g'li. Elastik yopishqoq suyuqliklarning stasionar bo'lmagan oqimlari harakatini o'rganishda shulman-xusidning modifikatsiya modelini qo'llash..... | 3 |
| Erkinboyev Qutlimurot San'atbek o'g'li. Ikkinchi tip klassik soha avtomorfizmlarining xossalari..... | 7 |
| Davletov Davronbek Egamberganovich, Sharipova Shahlo Istamovna. Differensial hisobning ba'zi teoremlarining iqtisodiy masalalardagi tatbiqlari..... | 11 |
| Ismoilova Zamira Tuxtaevna. Qovushoq-elastik muhitda joylashgan silindrik qobiqning radial tebranishlari..... | 15 |
| Navruzov Kuralbay, Abdikarimov Nabijon Ibadullayevich, Xayitboyev Quدرات Norbayevich. Yassi kanalda siqilmaydigan reologik murakkab suyuqliklarning laminar tebranma oqimi..... | 18 |
| Мадатов Хабибулла Ахмедович. Применение математической модели автоматического определения несущественных слов текстов на узбекском языке..... | 24 |
| Усманов Пазлитдин Нуритдинович, Коржавов Мустафа Жовлиевич. Внутри полосные приведенные вероятности e2-переходы в изотопах ^{182,184} W..... | 29 |

FALSAFA

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Halimov Sherzod Igamberdiyevich. Xalqaro migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy tahlili..... | 34 |
| Xusanov Bahodir Ergashevich. Estetik tarbiyaning global muammolarini klaster tizimi asosida o'rganish omillari..... | 36 |
| Toshbekova Mohira Xasanovna. Mafkuraviy tahdid texnologiyalarini o'rganishning metodologik jihatlari..... | 39 |
| Usmonov Shoxrux Shokir o'g'li. Madaniyatlararo muloqot jamiyatning ma'naviy-axloqiy olami sifatida..... | 42 |
| Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich. Oila va nikoh ijtimoiy institut sifatida vujudga kelishining tarixiy-falsafiy asoslari..... | 45 |

IQTISODIYOT

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Navruzov Anvarbek Kuralboevich. Tijorat banklarining kreditlar, muammoli kreditlar va ularning o'zgarishining tahlili masalalari..... | 50 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|

TILSHUNOSLIK

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kamolova Sanobar Jabborovna. O'zbek antoponimlarining tarixiy-lug'aviy ma'nolarining ifodalanishi..... | 54 |
| Rajabbayeva Feruza Rajabbayevna. Mediadiskursning semantik tipologiyasining o'rganilish tarixi..... | 56 |
| Yuldashev Akmal Gulamjanovich. Idiomatik qo'shma so'zlarda milliy madaniylikning aks etishi..... | 59 |
| Islomov Dilshod Shomurodovich. Tilshunoslikda fonopsixologiya atamasining kirib kelishi..... | 66 |
| Saydaliyeva Dilzodaxon Bohodirovna. O'zbek tilshunosligida sistemaviy yondashuv bo'yicha qarashlar..... | 69 |
| Uralova Oysuluv Poyon qizi. Ingliz va o'zbek tillarida zooleksemali maqollar semantikasi..... | 72 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna. Hikoyada tarixiy voqelik va badiiy talqin..... | 75 |
| Jo'rayeva Dilrom G'aybullayevna. O'zbek adabiyotida feminist ijodkorlarning o'rni..... | 77 |
| Umarova Komila Samatovna. XX asr o'zbek va ingliz adabiyotining o'ziga xos jihatlari..... | 80 |
| Vositov Shavkatjon Abdivaxabovich. Fitrat ijodining o'rganilish zarurati..... | 83 |
| Pulatova Barnoxon Abdulazizovna. Ingliz va o'zbek bolalar adabiyotida badiiy psixologizm..... | 85 |
| Matkarimova Malika. Sharlotta Brontening "Jeyn Eyr" asarida haqiqiy va sof sevgining tasviri..... | 88 |

PEDAGOGIKA

| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Saloxitdinova Navro'za Murodulla qizi. Boshlang'ich sinflarda STEAM ta'limini joriy qilishning pedagogik asoslari..... | 91 |
| Azamova Sitara Ayonovna. Ekologik tarbiya – maktab o'quvchilari ekologik ongini yuksaltirishning muhim ko'rsatkichi..... | 93 |
| Shodiyeva Nodira Normamatovna. Nikoh qurish yoshidagi talabalarda tibbiy savodxonlikni shakllantrishning ahamiyati..... | 96 |
| Akramova Mohichehra Rustamovna. Ingliz tilida o'qish – nutq faoliyati turi..... | 98 |
| Dushaboyev Olimjon Nazarovich, Mirmuxamedov Juman Xazratqulovich, Shodmonqulova Shahnoza Mirvaliyevna. Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishda intraktiv yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil etish..... | 100 |
| Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich. "Axloq" va "xulq" (axloqiylik) kategoriyalarining fandagi o'rni..... | 103 |